www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KESIM O‘RNIDA KELGAN ELEMENTLARNI SINTAKSEMALARGA AJRATISH

Xumora Abdiyeva

Navoiy davlat pedagogika instituti magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Ilmiy maqola kesim o‘rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlashda yunksion va komponent modellarga tayangan holda ish olib boriladi. Ya’ni, gaplarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish o‘zaro bir-birini to‘lg‘azadi. Shu bois ushbu maqoladan ko‘zlangan maqsad kesim o‘rnida kelgan elementlar differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlash, ularning tipologiyasini hamda har ikkala tilda kesim o‘rnida kelgan sintaktik elementlar izomorflik va allomorflik ko‘rinishlarini topish, ularning ifoda variantlarini izohlash, hamda u yoki bu sintaktik aloqalari yordamida differensial sintaktik va semantik belgilar bilan birika olishini yoritishdan iboratdir.

Kalit so’zlar:sintaktik-semantik, differensial sintaktik, sintaksema, protsessuallik, substansiallik va kvalifikativlik

Kesim semantikasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba’zi olimlar kesimni semantik anglash faqat uning semiotik talqinida namoyon bo‘lishini ta’kidlasalar[1], boshqa birlari esa gapdagi birliklarning semantikasi struktur ierarxiya orqali aniqlanishi mumkinligini ko‘rsatadi[2]. Bundan tashqari gapdagi har bir element semantikasi uning nutqda qo‘llanilishiga bog‘liqligini ta’kidlab o‘tilgan fikrlarni ham uchratish mumkin[3].

Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda shunisi muhimki, bir xil yunksion va komponent modellarga tushgan gaplarda turli xil differensial sintaktik va semantik belgilar mujassamlashgan holatni ko‘rishimiz mumkin. Umuman, gapdagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish har bir elementning u yoki bu o‘rinda sintaktik qatlamdagi semantik maydonini aniqlashda namoyon bo‘ladi. Masalan, muayyan element har ikkala tilda turlicha komponentli gaplarda turli o‘rinlarda kelib, har xil semantik maydonga ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi *a ren* va o‘zbek tilidagi *ruchka* so‘zini olsak, quyidagi gaplarda yuqorida aytilgan fikrning guvohi bo‘lishimiz mumkin:

1. I buy a pen.	*Men ruchka sotib olaman.*
2. A pen writes.	*Ruchka yozadi.*
3. I write with a pen.	*Men ruchka bilan yozaman.*

Agarda *pen, ruchka* so‘zlarining leksik ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, bu so‘zlar predmetni ifoda etadi, ammo sintaktik qatlamda har xil semantik maydonga ega bo‘ladi. Birinchi gapda *a pen, ruchka* so‘zlari kategorial belgilardan substansiallikka ega bo‘lib, nokategorial belgilardan esa ob’ektlik, ikkinchi gapda agentivlik (harakat ijrochisi) belgisini oladi. Uchinchi gapda esa substansiallik belgisidan tashqari *with a pen, ruchka bilan* so‘zlari instrumentallik (vosita) belgisiga ega bo‘ladi. Bu gaplarning sintaksem modellari quyidagichadir:

Ingliz tilida:	O‘zbek tilida:
(1) SbAg . PrAc . SbOb;	(1) SbAg . SbOb . PrAc;
(2) SbAg . PrAc;	(2) SbAg . PrAc;
(3) SbAg . PrAc . SbIns.	(3) SbAg . SbIns . PrAc.

Ko‘rinib turibdiki, *pen, ruchka* so‘zlari sintaktik qatlamda har ikkala tildagi gaplarda kategorial belgilardan substansialikka ega bo‘lsa, nokategorial differensial sintaktik-semantik

[1] Cook G. Discourse and Literature. - Oxford: Oxford University Press, 1994. – P. 242.
[2] Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. - Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др.- Вступ. статья и общ. ред. В.Г.Гака. - М.: Прогресс, 1988. – С.53.
[3] Gruber J.S. Lexical Structures in Syntax and Semantics. – Amsterdam, 1996. – P. 48-49.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

belgilardan turli o‘rinlarda turlicha, ya’ni ob’ektlik, agentivlik, instrumentallik belgilarini mujassamlashtiradi. Ammo, bu ishda faqat kesim o‘rnida kelgan sintaktik birliklar har ikkala tildagi gaplar misolida tadqiq etiladi.

Sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, asosan, uchta kategorial belgi ya’ni protsessuallik, substansiallik va kvalifikativlik[1] asosida olib boriladi. Ular asosida esa sintaktik birliklarning bir qancha nokategorial belgilari aniqlanadi. SHu bois ishda yuqorida aytib o‘tilgan kategorial belgilar 1) NP2 o‘rnida kelgan protsessual sintaksemalar tipologiyasi; 2) NP2 o‘rnida kelgan substansial sintaksemalar tipologiyasi; 3) NP2 o‘rnida kelgan kvalifikativ sintaksemalar tipologiyasi kabi guruhlarga ajratilgan holda tavsiflanadi**.**

Gapdagi sintaktik elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda yana bir kategorial belgilardan biri kvalifikativlik ham muhim o‘rin egallaydi. Bu belgi asosan predmet yoki shaxsning sifatini, sonini yoki holatini ifodalashi mumkin. Kategorial belgilardan kvalifikativlik protsessuallik va substansiallik belgilaridan farqli o‘laroq, sintaktik elementning u yoki bu belgisini yoki xususiyatini anglatishi bilan farqlanadi. Har uchala kategorial belgilarning ifodalanishi turlichadir, ya’ni turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin. SHuning uchun ham substansiallikni so‘z turkumlaridan ot bilan aralashtirmaslik kerak, chunki substansiallik ot, olmosh, sifat, son, hatto ravish orqali ham ifodalanishi mumkin. Protsessuallik esa J.Maruzo ta’kidlaganidek, harakat yoki holatni anglatadi[2] hamda fe’lning shaxsli va shaxssiz shakllari, ayrim hollarda bosha so‘z turkumlari yordamida ham ifodalanadi. Demak, kvalifikativlik ham turlicha so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin hamda nokategorial belgilari bilan substansiallik hamda protsessuallikdan farq qiladi. Faktik materiallarni tahlil qilganimizda kvalifikativlik kategorial belgisi asosida nokategorial belgilardan kvalitativ, kvalitativ-komparativ, kvalitativ-negativ, kvalifikativ-stativ, kvalifikativ-temporal, stativ-negativ, kvantitav, kvantitativ-elektiv kabi differensial sintaktik–semantik belgilarni uchratishimiz mumkin.

Stativlik xususiyatini ingliz tili materiali asosida morfologik qatlamda olib qarasak, holat kategoriyasi sifatida alohida so‘z turkumi deb qarash anchagina qiyinchiliklarga olib keladi. YA’ni u chuqurroq tahlil qilinsa, ikki xil fikrga duch kelamiz. Ayrim tilshunoslar *a-* prefiksi bilan berilgan *asleep, alike, afraid* so‘zlari ham holat kategoriyasini ifodalaydi deb hisoblashsalar[3], boshqalari esa so‘zlarni turkumlarga ajratib tasniflashda morfologik tamoyildan tashqari, semantik va sintaktik belgilarni inobatga olib, *a* - old qo‘shimcha bo‘lmagan so‘zlar, ya’ni *glad, sorry, ill* kabilar ham holatni ifodalovchi so‘zlarga sinonim deb ko‘rsatadilar[4], O.E.Filimonovaning fikricha, gaplarda predmet yoki shaxsning holati nafaqat holat kategoriyasini ifodalovchi so‘zlar yoki sifat orqali, balki *bog‘lama fe’l+predlog+ot* shaklidagi *to be in fear, to be in pain, to be in trouble* kabi birikmalar orqali ham ifodalanishi mumkin[5]. Quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

1. *She presently fell asleep (SMP,177).*
2. *I was silent (SST, 40)*

---

[2] Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: Лит. на иностр. языке, 1960. – С. 136.

[3] Ilyish B.A. The structure of Modern English. –Л.: Просвещение, 1971. – С. 74-75.; Винокурова Л.П. Грамматика английского языка. – Л.: Учпедгиз, 1954, – С. 244.

[4] Жигадло В.Н. и др. Современный английский язык (теоритеческий курс грамматики). – М.: Лит. на иностр. языке, 1956. – С. 174.

[5] Филимонова О.Е. Стативная синтаксема в английском предложении: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. - Л.: ЛОИЯ, 1978. – С. 8.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

3. *They grew angry and bitter (SMP,67).*
4. *I've always been afraid of the rain (EHF,117).*
5. *His face remained impressive (SMP,63).*
6. *We'll both get drunk (EHF,117).*

Keltirilgan gaplardagi *fell asleep, was silent, grew angry and bitter, have been afraid of, remained impressive, get drunk* elementlari NP2 (yadro predikativlik II) o'rnida kelib, yadro predikativ aloqa asosida NP1 o'rnida kelgan *She, I, they, face, we* elementlarining holatini ifodalab kelmoqda. Mazkur elementlarning stativ differensial sintaktik-semantik belgisini *to feel* yoki *to be in a state of* elementlarini qo'shimcha qilish transformatsiyasi orqali aniqlashimiz mumkin: *(1) She presently fell asleep She ... was in a state of sleeping; (2) I was silent I was in a state of silence; (3) They grew angry and bitter They were in a state of anger; (4) I've always been afraid of the rain I have felt fear ... I was in a state of fear...;(5) His face remained impressive His face was impressive His face was in a state of impression; (6) We'll both get drunk We'll ... be drunk We'll feel drunk We'll be in a state of drunken.*

Ingliz tilida gapda NP2 o'rnida kelgan kvalifikativ-stativ sintaksema NP1 o'rnida kelgan substansial sintaksemaga yadro predikativ aloqa bazasida holat belgisini yuklaydi. Subordinativ aloqa bazasida ular quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanishi mumkin:

1. Sotsiativ sintaksema bilan: *On a sudden he appered with her* (SMP, 211).

2. Obyekt-aktiv sintaksema bilan: *You will be too busy to come here tomorrow* (SMP, 197).

3. Kvalitativ sintaksema bilan: *They'll be awfully glad to see you* (EHF, 86).

4. Substansial ob'ekt sintaksema bilan: *I was short of money* (EHF, 81).

5. Lokativ sintaksema bilan: *You are very comfortable here* (EHF, 73).

6. Lokativ-allativ sintaksema bilan: *He was again late to his office* (BUG, 61).

7. Harakatning bajarilishi usuli yoki tarz sintaksemasi bilan*: The priest was young and blushed easily* (EHF, 6).

8. Temporal sintaksema bilan: *Rinaldi was quiet now* (EHF, 124).

Ingliz tilida kvalifikativ-stativ sintaksema quyidagicha ifodalanishi mumkin:

to be+adjective: We were very hungry (EHF, 74);
to be+stative: They were all asleep (EHF, 73);
to get+adjective : I get furious if they touch you (EHF,75);
shall/will be+adjective: We'll be hungry (EHF,135);
to grow+adjective: She flushed and grew pale (SMP,90);
to remain+adjective: He remained sympethetic, pleasant and amiable (SMP,213);
to seem+adjective: His dark eyes seemed ... large (SMP, 50);
to feel into+substance: We fell into silence (CST,151);
to look+adjective: She didn't look happy (EHF,107);
to look+Participle II: You are looking drawn (CST,131);
to be+Participle II: The soil is sacred (EHF, 129).

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

F.G.Isxakovning qayd etishicha, gaplarda NP2 o‘rnida kelgan kvalifikativ-stativ sintaksemalar o‘zbek tilida ham asosan fe’l bilan ifodalanadi[6]. Lekin holat ma’nosi boshqa so‘z turkumlari orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: *1) Erkak orzularga to‘la (TMK, 321); 2) Eshik lang ochiq (PQYU, 40); 3) Qish chillasi avjida (PQYU, 119); 4) Miyasi joyida (JAB, 26); 5) Men sendan o‘la-o‘lguncha minnatdorman (SHOZ, 226).*

O‘zbek tilida kvalifikativ-stativ sintaksema gapda NP2 o‘rnida kelganda yadro predikativ aloqa asosida faqat NP1 o‘rnidagi holat belgisi yuklatilgan substansial sintaksema bilan bog‘lanadi. Kvalifikativ-stativ sintaksema subordinativ aloqa asosida esa quyidagi sintaksemalar bilan bog‘lanishi mumkin: Kvalitativ-komparativ sintaksema bilan:*Xashaklar ko‘rpaday yastangan (JAB, 4* Temporal-limitativ sintaksema bilan: *Men sendan o‘la-o‘lguncha minnatdorman (SHOZ, 226).* Kvalitativ sintaksema bilan: *Eshik lang ochiq (PQYU, 40).*

Ma’lum bo‘lishicha, ingliz va o‘zbek tillarida predikativ aloqa bazasida holat yuklatilgan substansial sintaksema bilan bog‘lanish holati bir-biriga o‘xshaydi, ammo subordinativ aloqa asosida kvalifikativ-stativ sintaksema ingliz tilida turli tuman sintaksemalar bilan bog‘lansa, o‘zbek tilida esa bu holat anchagina chegaralanganligi ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Cook G. Discourse and Literature. - Oxford: Oxford University Press, 1994. – P. 242.
2. Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. - Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др.- Вступ. статья и общ. ред. В.Г.Гака. - М.: Прогресс, 1988. – С.53.
3. Gruber J.S. Lexical Structures in Syntax and Semantics. – Amsterdam, 1996. – P. 48-49.
4. Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. – Л.: Наука, 1980. – С. 155.
5. Исхаков Ф.Г. Имена действия и состояния в современном узбекском языке (формы на –и(ш), -моқ, -(у)в): Автореф. дис. … канд. филол. наук. - Самарканд: СамГУ, 1960. – С. 12.
6. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: Лит. на иностр. языке, 1960. – С. 136.
7. Ilyish B.A. The structure of Modern English. –Л.: Просвещение, 1971. – С. 74-75.; Винокурова Л.П. Грамматика английского языка. – Л.: Учпедгиз, 1954, – С. 244.